

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT YURITISHNING SHAKLLARI VA YO'NALISHLARI

Naimova Nargiza Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti

Bobojonova Madina Jumaniyoz qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida investitsion faollikni oshirishdagi muammolar o'rganib chiqilgan. Bundan tashqari aynan tashqi savdo aloqalarini yaxshilash bo'yicha kerakli xulosa va tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Tashqi iqtisodiy aloqalar, xalqaro savdo, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ichki va tashqi savso strategiya, infratuzilma.*

Tashqi iqtisodiy aloqalar - iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va faoliyatning boshqa sohalarida davlat va uning subyektlari xalqaro hamkorligining xilma-xil shakllari tizimidir. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va turli milliy davlatlar iqtisodiyotidagi o'zaro bog'liqlik va xo'jalik aloqlarining kengayishi natijasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, soha va yo'nalishlari yanada ortib bordi. Oddiy tovarlar ayirboshlash o'rnini teng huquqli va manfaatli savdo egallay boshladi. Milliy davlatlarning tashqi savdoni tartibga solish dastaklari, usullari murakkablashib bordi. Natijada, faqat tashqi savdo xususida emas, unga bog'liq keng ko'lamdagi aloqalar: davlatlararo savdoiqtisodiy bitimlar, o'zaro hamkorlik majburiyatlari, banklararo to'lovlar tizimi, transport va sug'urta ta'minoti, tovarlarning sifatleri, standartlashtirish talablari xususidagi masalalar ham katta o'rin egallay boshladi. Shu sababdan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yaxlit bir tizim sifatida tasvur etgan holda, o'zaro bog'liq masalalrni kompleks hal etish zaruratini anglamoq lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning yo'nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmi va shakllarini to'liq tasavvur qilish uchun o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimini xalqaro miqyosda tartibga solishdagi o'zgarishlarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir : - xalqaro savdoni taribga solishda Tariflar va Savdo bo'yicha Bosh Bitimning qabul qilinishi hamda 1995-yilda Jahon savdo tashkilotining shakllanishi davlatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar savdosi, investitsiyalar va maxsus harid xususiyatiga ega tovarlarni tartibga solish qoidalarini belgilab berdi; BMTning tarmoq va sohalar bo'yicha ixtisoslashgan bo'limlari (komissiyalar, konferensiyalar, qo'mitalar, dasturlar) doirasida tashqi savdoning tartibga solinishi lozim bo'lgan sohalar bo'yicha Konvensiyalar, shartnomalar qabul qilindi. Masalan, xalqaro savdoda yuk tashish qoidalari, intellektual mulk himoyasi, investitsiyalarni sug'urtalashga oid xalqaro konvensiyalar shular jumlasidandir; - tashqi

va xalqaro savdoni amalga oshirishda xalqaro bank-moliya tizimi –Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi kabilar shakllandi hamda o'zaro hisob-kitob, kredit, investitsiyalar va grantlarni o'zlashtirish bo'yicha tegishli tartiblar belgilandi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkiban tashqi savdoga aloqador bo'lgan boshqa sohalar bilan bog'liqligi ortdi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyatning sohaları kengaydi va savdo-sotiq, investitsiyalar, ish kuchi migratsiyasi, texnologiyalarni ko'chirish, axborot almashish, fan-texnika yutuqlarini ayirboshlash va boshqa ko'plab sohalar bilan o'zaro bog'liqlikda, o'zaro ta'sirda bo'lishini namoyon eta boshladi. Xalqaro iqtisodiy aqalarning mazkur sohaları davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama maxsus bitimlar tuzish hamda kelishuvlarni amalga oshirish zarurligini taqazo eta boshladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- mahsulot (tovar va xizmatlar) ayrboshlash, ya'ni xalqaro savdo; - ilmiy-texnikaviy mahsulotni ayrboshlash;
- ishlab chiqarishni joylashtirish;
- investitsiyalar, valyuta va kreditlar borasidagi yo'nalishlar;
- axborot va aloqa sohalaridagi yo'nalishlar;
- mehnat resurslari harakati yo'nalishlari.

Qayd etilgan yo'nalishlar alohida tarzda emas, balki o'zaro bog'langan va birbirini ta'minlovchi sohalar sifatida ham qaralmog'i lozim. Masalan, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlashda ularning bank tizimlari, balyuta almashinuvi tartibi bilan bir qatorda tovarlarni yetkazib berishda ishtirok etuvchi transport - ekspeditorlik, sug'urta, sifatni tekshirish va nazorat etish kabi sohalariga aloqador masalalarda ham munosabatlar albatta o'rnatilgan bo'lishi shart.

Jahon xo'jalik faoliyati va xususan, tashqi iqtisodiy faoliyatga quyidagi sohalar kiradi:

- xalqaro savdo;
- ishlab chiqarish va fan-texnika sohasidagi xalqaro ixtisoslashuv;
- fan-texnika taraqqiyoti natijalarini ayrboshlash; mamlakatlar o'rtasidagi valyuta moliyaviy hamda kredit aloqalari; kapital va ishchi kuchining harakati;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyati, global muammolarni hal etishdagi iqtisodiy hamkorlik.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning turli shakllari mavjud bo'lib, unga quyidagilar kiradi: tashqi savdo(tovar va xizmatlar bo'yicha), qo'shma tadbirkorlik (qo'shma korxonalar, franchayzing, laysenzing, agentlik va h.k.), hamkorlikning boshqa shakllari (biznes alyanslar, konsortsiumlar va h.k.).

Tasniflash deganda xalqaro tijorat kelishuvini oldi-sotti va tovar almashish kelishuvlariga ajratishni tushunish mumkin. Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish harakteri va predmetiga ko'ra u quyidagilarga ajratiladi:

1. Tayyor mahsulot savdosi
2. Yig'ilmagan ko'rinishdagi mahsulot savdosi
3. Barter operatsiyalari
4. Eskirgan uskunalar savdosi
5. Xom-ashyo savdosi
6. Litsenziyalar savdosi
7. Injininging xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

8. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdoga asoslanadi, chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga egadirlar. Shuni takidlash joizki, xalqaro savdo tashqi iqtisodiy faoliyat barcha qolgan shakllari va turlarining boshlang'ich, muvofiqlashtiruvchi va ko'paytiruvchi negizi hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning horijiy sarmoyani jalb etishdek shaklining samaradorligi ham uning darajasiga bog'liqdir. Savdodagi qonun hujjatlari tomonidan belgilangan va boshqa cheklashlar investitsiya jarayonlarida aks etadi.

9. Tashqi iqtisodiy aloqalar tarixiy va iqtisodiy toifa hisoblanadi. Tarixiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar sivilizatsiya maxsuloti hisoblanadi. Ular davlatlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keladi va ular bilan birga rivojlanadi. Ushbu aloqalarning rivojlanishiga ayniqsa feodalizmning tanazzuli kuchli turtki berdi. Natural xo'jalikdan tovar-pul munosabatlariga o'tilishi alohida davlatlarning milliy bozorlarini rivojlantirishga va ushbu milliy bozorlarning tovar ayrboshlashida keskin sakrashni tug'dirdi, bu esa davlat munosabatlarining iqtisodiy sohasida baynalmilal aloqalar va xalqaro ayrboshlash kengayishi va chuqurlashishiga olib keldi. Iqtisodiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar barcha turdagi resurslarning davlatlar va turli davlatlarning iqtisodiy sub'yektlari o'rtasidagi harakati paytida yuzaga keladigan ishlab chiqarish –iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi. Ushbu ikki taraflama munosabatlar davlat iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, avvalo uning ishlab chiqarish, savdo, investitsiyaga oid vamoliyaviy faoliyatini qamrab oladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat hajmi tobora ortib bormoqda. U ayniqsa, davlatlar o'rtasidagi tovar oborotida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Unda ichki bozordagiga nisbatan ko'proq ishtrokchi qatnashmoqda. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va uning mexanizmi bozor munosabatlarining sohasi sifatida quyidagi yangi xususiyatlarga ega bo'lmoqda:

- jahon iqtisodiyoti ko'lamining kengayib borishi, ustiga-ustak sotuvchilar va iste'molchilarning alohida joylashganligi natijasida transport muammosining ortib borishi;

- ba'zi resurslarning (asosan yer, tabiiy-qazilma boyliklarning) kam harakatliligi va manzilga bog'liqligi. Bunga davlatning aralashuvi ham ta'sir etadi (migratsiya qoidalarini joriy etish, chet elliklarga yer sotish, chet el investitsiyalarini va firmalar faoliyatini cheklash, tashqi savdoda proteksionizmga yo'l qo'yish);

- xalqaro ayrboshlashda milliy valyutadan foydalanishning zarurligi va valyuta bozoriga bog'liqlik (ayniqsa, valyuta nazorati va uni tartibga solish masalalarida);

- mahsulotlarni xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirishga e'tiborning ortishi;

- axborot muhiti va uning haqqoniyligiga e'tiborning ortishi. Axborot manbalari, uni to'plash va qiyoslash uslubiyatida muammolarning yuzaga kelishi, milliy va xalqaro statistikaga e'tiborning ortishi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar unifikatsiya qilinishiga bo'lgan intilish.

Bu yo'nalish quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

- barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligi uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi;

- bozorga xorijiy raqobatchilar ham kirishi uchun imkon berilishi;

- kichik biznesning rivojlanishiga halaqit beruvchi ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlash va tarmoqqa kirishidagi to'siqlarni pasaytirish;

- tabiiy monopoliyalarning narx va mahsulot sotish siyo-satini tartibga solish va boshqalar.

3. Institusional o'zgarishlar. Mazkur o'zgarishlar quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish;

- bozor infratuzilmasini (tijorat banklari, tovar va fond birjalari, investisiya fondlari va h.k.) shakllantirish;

- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tizimini yaratish;

- bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo'jalik qonunchiligini qabul qilish va boshqalar.

4. Tarkibiy o'zgarishlar. Tarkibiy o'zgarishlar birinchi navbatda xalq xo'jaligi va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishdan asosiy maqsad - ichki va tashqi bozorlarda to'lovga qodir talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarilishini rivojlantirishdan iborat.

5. Makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish. Aslini olganda, bu jarayon tizimiy islohotlar qatoriga kir-maydi, chunki u bozor iqtisodiyoti barqaror amal qilayotgan mamlakatlarda ham tez-tez o'tkazilib turadi. Bu yo'nalishning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi, eng awalo va kuchli rav-ishda moliyaviy sohada, ayniqsa, yuqori inflyasiya shaklida namoyon bo'ladi. Inflyasiyaning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bozor munosabatlarining normal qaror topishiga to'sqinlik qiladi, shuning uchun uni bartaraf etish o'tish davri iqtisodiyoti uchun o'ta muhim hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish, ijobiy foiz stavkasini ta'minlash va boshqalar kiradi.

6. Bozor xo'jaligiga mos bo'lgan aholini ijtimoiy himoya-lash tizimini shakllantirish. Bu tizim aholining nisbatan muhtoj qatlamini aniq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Bozor tizimining ko'rsatib o'tilgan asosiy unsurlarini shakllanishining yakuniga yetishi o'tish davri tugaganligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 107-112.
2. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. (2024). QISHLOQ XO 'JALIGINI KLASTERLASHNING XORIJIY TAJRIBASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 65-71.
3. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O'ZBEKISTONDA FRILANSERLIK VA AUTSORSERLIKNING RIVOJLANISH DARAJASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 72-77.
4. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). AHOLINING O'ZINI OZI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING YANGI SHAKLINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 59-64.
5. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI-MA'MURIY HUQUQ OBYEKTI SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 371-377.
6. Akbarovna, N. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SOHALARDA VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIDA MAMLAKATNING IQTISODIY SALOHİYATI.
7. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT SOLIQ QO 'MITASINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RAQAMLASHTIRISH STRATEGIYASI.
8. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF MARKETING RESEARCH. *Modern Science and Research*, 3(5), 306-312.

9. Nargiza, N. (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889-893.
10. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.
11. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
12. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
13. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
14. Akbarovna, N. N. (2024). KORXONADA MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 133-141.
15. Akbarovna, N. N. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TURIZIMNING O'RNI NAZARIY USLUBIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 63-70.
16. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHİYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
17. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.
18. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). KORXONALARNING BOZORDAGI FAOLIGINI BAHOLASHDA ANSOFF MATRISASINI QO'LLASH: AFZALLIKLARI VA USTUNLIKLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 100-106.
19. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.
20. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
21. Solijonov, S., To'Rayev, T., Bobojonova, M., Tojimatova, S., & Xoldorova, X. (2022). ISSIQXONA SHAROITIDA BODRING NAVLARINI O 'SISH RIVOJLANISH VA HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI. *Science and innovation*, 1(D7), 251-254.
22. Solijonov, S., Bobojonova, M., Xoldorova, X., To'RaeV, T., & Tojimatova, S. (2022). ЛАЛМИКОР ДЕХҚОНЧИЛИКДА БЕДА “АРИДНАЯ” НАВИНИНГ УРУҒЧИЛИГИ. *Science and innovation*, 1(D7), 255-258.

23. Solijonov, S., To'rayev, T., Bobojonova, M., & Xoldorova, S. T. X. (2022). THE EFFECT OF PLANTING TIME ON GROWTH DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF CUCUMBER VARIETIES IN GREENHOUSE CONDITIONS. *Science and Innovation*, 1(7), 251-254.

24. Sodiqova, N. T., & Quدراتova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.

25. Sodiqova, N. T., & Quدراتova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.

26. Sodiqova, N. T., & Quدراتova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.

27. Quدراتova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.

28. Quدراتova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.

29. Quدراتova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 162-166.

30. Sodiqova, N. T., & Quدراتova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.

31. Sodiqova, N. T., & Quدراتova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.

32. Quدراتova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.

33. Quدراتova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345